CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

DJURAYEV DAVRON DONIYOROVICH

TALABALARNING TARMOQ TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA'LIMDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq 2026

UO‘K: 378.018.43.091.3:004

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Djurayev Davron Doniyorovich
Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’limdan foydalanish metodikasini takomillashtirish ……..….. 3

Джураев Даврон Дониёрович
Совершенствование методики использования виртуального образования в развитии компетентности студентов по сетевым технологиям ……..…...… 21

Djuraev Davron Doniyorovich
Improving the methodology for using virtual education in developing students’ competence in network technologies ……..…….. 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

DJURAYEV DAVRON DONIYOROVICH

TALABALARNING TARMOQ TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA'LIMDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7707 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mo'minov Bahodir Boltayevich** Texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Lutfillayev Maxmud Xasanovich** Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Bobomuxamedova Shoira Agzamdjan qizi Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "10" 11 kuni soat 16 "" dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temir ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (537 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temir ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "28" 10 kuni tarqatildi.

(2026 yil "28" 10 dagi 33 - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuri Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda Mirapolis LMS, WebTutor, iSpring Learn, ShareKnowledge kabi ta’limni boshqarish tizimlari, muammoli, loyihaviy, differensial kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalari, B-learning, A-learning, E-learning, M-learning metodlari, ezTalks Meetings, EdApp, Kajabi va Vedamo virtual ta’lim platformalari, axborot-ta’lim muhitlari, bulutli texnologiyalar, imitatsion modellar, vizual o‘quv vositalaridan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim oluvchilarning raqamli texnologiyalarga oid motivatsiyasini oshirish, ijodiy qobiliyatini, kreativ va kognitiv fikrlashini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga nazariy, metodik va uslubiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Dunyo miqyosida talabalarning axborot-kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda dasturlashtirilgan kompyuterli tizimlar, ta’lim platformalari hamda boshqarish tizimlari, raqamli, bulutli, smart, blog, tarmoq kabi texnologiyalari, Cisco, Coursera, Huawei, Microsoft va IBM kompaniyalar tomonidan tashkil etilgan masofaviy kurslardan foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari talabalarning raqamli texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirish, bunda virtual ta’lim texnologiyalari, loyihalashga yo‘naltirilgan dasturiy vositalar va simulyatorlardan foydalanish, turli darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqish hamda ta’limiy raqamli resurslarni loyihalash asosida mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy-nazariy ishlanmalar ko‘lamini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish bilan pedagog kadrlarni tayyorlashda virtual ta’lim va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali tarmoq texnologiyalarini o‘qitishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O‘z navbatida uzluksiz ta’lim tizimida tarmoq texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu borada, oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash; ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish; ta’lim jarayonlarida bulutli texnologiyalardan foydalanish; milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu konsepsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish uchun virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy-metodik shartlarini takomillashtirish hamda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori kabi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar turkumidagi fanlarni o‘qitish metodikasiga oid izlanishlar: F.M.Zakirova, N.I.Taylaqov, D.M.Maxmudova, N.A.Kayumova, U.M.Mirsanov, Z.E.Chorshanbiyevlar; aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar: M.H.Lutfillayev, U.B.Baxodirova, E.R.Axmedov, S.A.Panjiyevlar; ta’lim jarayonida tarmoq texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari hamda “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasiga doir tadqiqot ishlari: I.A.Yuldoshev, A.E.Begbo‘tayevlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida bo‘lajak raqamli texnologiyalar fani o‘qituvchilarini tayyorlash nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar M.M.Abdurazakov, Ye.V.Yermolovich, V.G.Manyaxinalar, S.I.Shuklin, O.A.Medvedeva, D.P.Chagiplar, tarmoq texnologiyalariga doir fanlarni o‘qitish metodikasi va talabalarning raqamli texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari O.I.Lyash, D.F.Chekanov, N.N.Vasilyuk, O.A.Shestopalova, S.S.Arbuzov, tarmoq texnologiyalariga oid kompetentlikning mazmuniga oid tadqiqotlar D.V.Rodin, A.Kondakov, A.I.Kapterevlar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda raqamli texnologiyalarga oid fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, veb-texnologiyalar va axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanishga oid izlanishlar Sonsoles López Pernas, Santiago Sánchez Sobrino, Andreas Zendlerlar, Pérez Juliolar; o‘quv jarayonida virtual ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish masalalari bo‘yicha izlanishlar: Francisco Cerezo Coca, Antonio Manuel Diogo dos Reis, tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda simulyatsiyaga asoslangan interaktiv o‘quv muhitlaridan foydalanish muammolari bo‘yicha izlanishlar: Miguel Santos Familiar Cabero, A.Mestres Sugrañes kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish metodikasi, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, raqamli texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirish mexanizmlariga oid ilmiy tadqiqot ishlari bo‘lib, biroq talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ilmiy-nazariy jihatdan to‘lig‘icha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘quv jarayonini boshqaruvchi tizim yaratish” (2020-2023-yillar) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’limdan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’limdan foydalanishning integrativ-didaktik komponentlarini aniqlash;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini virtual ta’lim muhitida rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta’minotlar modifikatsiyasini ishlab chiqish;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish samaradorligi raqamli mustaqil ta’limda intensiv ta’minlanishini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qo‘qon davlat universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Navoiy davlat universitetining 506 nafar talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-uslubiy manbalarni qiyosiy tahlil etish, oliy ta’lim muassasalari Davlat ta’lim standartlarini, malaka talablarini, o‘quv-reja va namunaviy dasturini o‘rganish, anketa-so‘rov, suhbat, kuzatish hamda tajriba-sinov ishlarida olingan natijalarni matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’limdan foydalanishning nazariya va virtual amaliyot uyg‘unligi hamda texnologik-instrumental kabi integrativ-didaktik komponentlari raqamli ta’limning gibrid va personallashtirilgan texnologiyalar ekotizimi mutanosibligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini virtual ta’lim muhitida rivojlantirish modeli raqamli kontentning didaktik invariantlarida talabalarning individual-kasbiy trayektoriyasini dinamik kuzatish elementlarini elektron algoritmlar va sun’iy intellekt integratsiyasiga asoslangan “ustoz-shogird” yondashuvi ustuvorligida modifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta’minotlar modifikatsiyasi talabalarda pedagogik faoliyatni raqamli kontekstlash motivatsiyasini rivojlantiruvchi interaktiv vositalar va virtual laboratoriyalarni akademik-diagnostikaga moslashuvchan konstruksiyalarda simulyativ-differensiatsiyalanish imkoniyatlariga ko‘ra qo‘llash asosida optimallashtirilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish samaradorligi raqamli mustaqil ta’limda intensiv ta’minlanishi axborotlar analiz-sintezini qulay va real sharoitda o‘zlashtirishga qaratilgan dinamik qaydli konstruktiv topshiriqlarni aralash hamda teskari ta’lim elementlari kombinatsiyasida differensial qo‘llash orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan axborot-ta’lim muhiti (https://networktechnology.uz) ishlab chiqilgan va unga raqamli kontentning didaktik invariantlari sifatida didaktik o‘quv vositalar shakllantirilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan elektron qo‘llanma”, “Pedagogik glossariy” nomli didaktik ta’minot va **VirtualNetUz** simulyatori nazariya va virtual amaliyot uyg‘unligini ta’minlovchi texnologik-instrumental vosita sifatida ishlab chiqilgan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarda (ma’ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta’lim) virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi gibrid va raqamli mustaqil ta’lim imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuvlar, usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, ilmiy-uslubiy jurnallarda, Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o‘quv qo‘llanma, intellektual mulk agentligidan olingan guvohnomalar, o‘tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tuzilmalar, o‘qitish samaradorligini oshirish modeli va oliy ta’lim muassasalarining tarmoq texnologiyalariga oid mashg‘ulotlarda virtual ta’lim texnologiyalari joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda xizmat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni tatbiq etilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’limdan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’limdan foydalanishning nazariya va virtual amaliyot uyg‘unligi hamda texnologik-instrumental kabi integrativ-didaktik komponentlari raqamli ta’limning gibrid va personallashtirilgan texnologiyalar ekotizimi mutanosibligini ta’minlashga oid takliflar “Kompyuter tarmoqlari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug‘i asosidagi 300437-raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish metodlaridan samarali foydalanishga erishilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini virtual ta’lim muhitida rivojlantirish modeli raqamli kontentning didaktik invariantlarida talabalarning individual-kasbiy trayektoriyasini dinamik kuzatish elementlarini elektron algoritmlar va sun’iy intellekt integratsiyasiga asoslangan “ustoz-shogird” yondashuvi ustuvorligida modifikatsiyalashga oid takliflar “Kompyuter tarmoqlari fanidan laboratoriya ishlari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 5-yanvardagi 7441-2769-5b51-c8a6-1e11-1771-9187-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tarmoq texnologiyalariga oid mashg‘ulotlarni olib borish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish samaradorligi raqamli mustaqil ta’limda intensiv ta’minlanishi axborotlar analiz-sintezini qulay va real sharoitda o‘zlashtirishga qaratilgan dinamik qaydli konstruktiv topshiriqlarni aralash hamda teskari ta’lim elementlari kombinatsiyasida differensial qo‘llashga oid takliflardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209-raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 20-maydagi 04/1-3442-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ta’lim jarayonida virtual ta’limdan foydalanish amaliyotini metodik jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 3 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta maqola OAK ro‘yxatiga kiritilgan Respublika jurnallarida, 1 ta yuqori impak-faktorli xorijiy jurnalda va 1 ta maqola Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasida indekslanuvchi konferensiyada nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 119 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning ish bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari,

ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarda tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muammolari tahlil qilingan, mazkur jarayonda virtual ta’lim texnologiyalarining nazariya va virtual amaliyot uyg‘unligini ta’minlashdagi imkoniyatlari asoslangan hamda ulardan foydalanishda tayaniladigan didaktik tamoyillar keltirilgan.

Bugungi kunda global tarmoq imkoniyatlarining kengayishi va barcha sohalarda tatbiq etilishi hamda ma’lumotlarni himoyalashda turkum muammolar paydo bo‘lishi sababli oliy ta’lim muassasalari talabalarining informatika va axborot texnologiyalariga, jumladan tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid motivatsiyasini, ijodiy qobiliyatini, kreativ, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nazariy bilimlarni virtual-amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, virtual jarayonlarni yoritishga qaratilgan videoma’ruzalar, simulyatorlar, axborot-ta’lim muhiti va mustaqil ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanishga asoslangan nazariy-amaliy hamda texnologik-instrumental kabi integrativ-didaktik komponentlarni aniqlashtirish talab etiladi.

Bu borada, ya’ni tarmoq texnologiyasi asosida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish (I.A.Yuldoshev), tarmoq texnologiyalarini smart-texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi va talabalarni tayyorlashning intellektual faoliyat bosqichlari va tayyorgarlik darajalarini oshirish (A.E.Begbo‘tayev, M.S.Familiar Cabero, S.S.Arbuzov), talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kreativ, kognitiv fikrlashini va tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitishda virtual mashinalardan foydalanish mexanizmlari (O.I.Lyash), tarmoq texnologiyalari fanining mazmunini takomillashtirish orqali talabalarning kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti (D.F.Chekanov, N.N.Vasilyuk), tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda simulyatsiyaga asoslangan interaktiv o‘quv muhitlaridan foydalanish muammolari (O.A.Shestopalova, A.Mestres Sugrañes), mashinali o‘qitish yondashuviga asoslangan tarmoq texnologiyalariga oid virtual laboratoriyalar yaratish (J.M.Navarro González, E.Lampi), tarmoqlarda muammolarni bartaraf etishni o‘rgatish uchun virtual haqiqat texnologiyalaridan foydalanish (C.D.Frezzo) tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga oid ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo‘lsa-da, ammo pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning hamda mavjud ta’lim muassasalaridagi holatlarning tahliliga ko‘ra, talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan ekanligi aniqlandi. Bunda talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjudligi ma’lum bo‘ldi: bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni tayyorlashda majburiy fanlar blokiga “Tarmoq texnologiyalari” fanini kiritish; tarmoq texnologiyalarini o‘qitishga doir didaktik o‘quv vositalarni, jumladan virtual ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni tajriba-sinovdan o‘tkazish orqali ta’lim jarayoniga joriy etish; tarmoq texnologiyalariga oid olib borilayotgan mashg‘ulotlarda (ma’ruza, amaliy va laboratoriya) virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish; bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining virtual ta’lim texnologiyalari asosida kompyuter tarmoqlarini loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish; pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun axborot-ta’lim muhitlari, onlayn platformalar, elektron resurslardan ta’limiy, qayta aloqa, diagnostik, kommunikativ faoliyatda, mustaqil ta’lim jarayonida tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Bu kabi muammolarni yechish uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalarida zamon talabiga mos tarmoq texnologiyalarini o‘rgatishga mo‘ljallangan virtual ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, raqamli ta’limning gibrid va personallashtirilgan texnologiyalar ekotizimi yaratish va ularni pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazish orqali ta’lim jarayoniga joriy etish talab etiladi. Chunki virtual ta’lim texnologiyalari o‘quv materialini vizual shaklda taqdim etishga, murakkab bo‘lgan jarayon va hodisalarning virtual obrazini yaratishga, mustaqil ta’limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishga, o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani oshirishda metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi (U.B.Baxodirova, V.Y.Svetkov). Shuningdek, virtual ta’lim texnologiyalari yordamida kompyuterdan chiqadigan raqamli signallar modem qurilmasida elektr signallarga aylantirilishi, tarmoq kabellari yordamida uzatilishi, ushbu jarayonga teskari bo‘lgan hodisa ko‘rsatiladi va tushuntiriladi. Shu bilan birga kompyuterdagi mavjud apparat va dasturiy vositalar orqali ma’lumotlar uzatilish jarayoni obrazli ravishda namoyish etiladi (O.I.Lyash, M.H.Lutfillayev).

Mazkur jarayonlarni talabalar ongiga to‘laqonli yetkazishda virtual ta’lim texnologiyalaridan, jumladan, vizual simulyatsiyaga asoslangan o‘quv vositalari an’anaviy multimedia muhitlariga qaraganda murakkab jarayon va obyektlarni tasvirlash, ularda yuz beradigan xatti-harakatlar va o‘zaro ta’sir darajasi talabalar uchun mazmunli va o‘z-o‘zidan rag‘batlantiruvchi mavjud vazifalarni bajarishga imkon beradi (G.Javidi, E.Sheybani, C.Dennis Frezzo).


Ilmiy izlanishlarimiz natijasida aytish mumkin-ki, virtual ta’lim texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan vizual simulyatsiyaga asoslangan o‘quv vositalari talabalarga modulyatsiya va demodulyatsiya jarayonini obrazli taqdim etish, tarmoqda signallarning harakatlanishini aks ettirish, elektron pochta va qidiruv tizimlarining ishlash tamoyillarini virtual shaklda taqdim etish orqali ularning tasavvurlarini shakllantirish, global tarmoq va uning tuzilish strukturasini virtual shaklda tushuntirish, brauzerlar orqali serverga murojaat qilishning virtual jarayonini yoritish kabi imkoniyatlarga ega.

Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini virtual ta’lim muhitida rivojlantirish

imkoniyatlarini e’tiborga oluvchi asosiy qoidalarni, ta’lim metodlarini qo‘llashni yangicha yondashuvlarini, talabalarning individual-kasbiy trayektoriyasini dinamik kuzatish elementlarini elektron algoritmlar va sun’iy intellekt integratsiyasiga asoslangan “ustoz-shogird” yondashuvi ustuvorligida modifikatsiyalash hamda o‘qitish samaradorligini oshirishda tayaniladigan tamoyillarni aniqlashtirish, agar zarur bo‘lsa ularni takomillashtirish va moslashtirish lozim.

Shu bois, tadqiqot doirasida axborot-ta’lim muhiti yaratish uchun matematik, pedagogik, psixologik, informatik, dizayner mutaxassislarni jalb qilish orqali talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda tayaniladigan ilmiylik, uzluksiz va uzviylik, vizual ko‘rish, psixologik, psixofiziologik, iyearxik asosiy tamoyillar va dasturiy talab aniqlashtirildi.

Ushbu tamoyillar va talab asosida tarmoq texnologiyalariga oid mashg‘ulotlarni “ustoz-shogird” yondashuvi asosida virtual ta’lim texnologiyalari yordamida samarali tashkil etish, talabalarning tarmoqdan samarali foydalanishga oid motivatsiyasini oshirish, kreativ fikrlashi, ijodiy qobiliyati va kompetentligini rivojlantirishga erishiladi. Buning uchun, dastlab tarmoq texnologiyalariga oid mashg‘ulotlarni virtual ta’lim texnologiyalari asosida tashkil qilishga qaratilgan axborot-ta’lim muhitini ishlab chiqish lozim. Shuning uchun tadqiqot doirasida Yii PHP framework platformasidan foydalanib, SAM (Successive Approximation Model) modeliga tayangan holda global tarmoqning https://networktechnology.uz/ manzilida axborot-ta’lim muhiti ishlab chiqildi va unga ta’limiy kontentlar joylashtirildi. Ishlab chiqilgan axborot-ta’lim muhiti talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan texnologik-instrumental komponent bo‘lib, uning tarkibiy tuzilmasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Axborot-ta’lim muhitining tarkibiy tuzilmasi

Mazkur axborot-ta’lim muhiti tarmoq texnologiyalariga oid nazariy bilimlar bilan virtual amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda talabalarga nazariy materiallarni izchil o‘zlashtirish, murakkab jarayonlarni virtual muhitda kuzatish, loyiha va guruh ishlarini onlayn tashkil etish, mustaqil topshiriqlarni bajarish, masofaviy maslahat olish, biometrik identifikatsiya asosida test topshirish hamda o‘zini-o‘zi baholash orqali talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Dissertatsiyaning ikkinchi **“Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** bobida talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish modeli, didaktik ta’minoti, mashg‘ulotlarini virtual ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish va mustaqil ta’limdan foydalanish metodikasi takomillashtirildi.

Bugungi kunda tarmoq texnologiyalariga oid texnik-dasturiy vositalarning jadal kirib kelayotganligi va takomillashayotganligi, kelajakda ishlab chiqiladigan o‘qitish tizimlarining aksariyati masofaviy ta’lim, virtual laboratoriyalar, bulutli xizmatlar, interaktiv platformalar va telekommunikatsiya infratuzilmasi bilan bevosita bog‘lanmoqda. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari hamda pedagog va psixologlarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini, xususan virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirish lozim. Shuning uchun, mazkur bobda talabalarning tarmoq texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirildi (2-rasmga qarang).

Taklif etilayotgan model tashkiliy, texnologik, amaliy va baholash qismlardan iborat bo‘lib, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan. Unda talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv faoliyatini virtual ta’lim texnologiyalari, loyihalashtirishga mo‘ljallangan amaliy dasturlar (**VirtualNetUz**) hamda axborot-ta’lim muhiti (https://networktechnology.uz/) asosida tashkil etish taklif etilgan.

Modelda tarmoq texnologiyalariga oid ma’ruza, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘qitish samaradorligini oshirish va mustaqil ishini tashkil etishni kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borish metodikasi keltirilgan. Unda ma’ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini “ustoz-shogird” yondashuvi ustuvorligida rivojlantiruvchi, muammoli, loyihaviy, masofaviy ta’lim texnologiyalarini virtual ta’limga integratsiyalash asosida, active-learning metodlari, vizual loyihalashtirish dasturlari, simulyator va emulyator vositalaridan foydalanib tashkil etish metodikasi takomillashtirildi.

Shu bilan birga, modelning amaliy qismida talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning motivatsion-bilish, refleksiv-baholash, nazariy-analitik, amaliy-faoliyat va integrativ-kreativ bosqichlari ishlab chiqildi.



2-rasm. Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish modeli

Mazkur bosqichlar talabalarning individual-kasbiy trayektoriyasini dinamik kuzatish hamda ularning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligining bosqichma-bosqich rivojlanishini aniqlashga yo'naltirildi. Ushbu bosqichlar amalga

oshirilganidan so‘ng talabalarning kompetentlik darajalarini akademik-diagnostika asosida baholash talab etiladi. Shu bois, modelning baholash qismida shaxsiy-refleksiv, kognitiv-operatsion, tashkiliy va mazmunli hamda motivatsion-qiymat mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar asosida talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligi yuqori, o‘rta va quyi darajalarda baholandi.

Shuningdek, mazkur bobda talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta’minoti takomillashtirildi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida tarmoq texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish maqsadida maxsus dasturiy ta’minotlar, xususan, turli xil virtual laboratoriya va simulyator vositalardan keng foydalanilmoqda. Bunday dasturiy vositalar talabalarga nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlab, nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda real sharoitlarga yaqin muhitda ishlash imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan, talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish va ularni samarali qo‘llash nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlovchi didaktik vosita hamda zamonaviy raqamli ta’lim jarayonining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, tadqiqot doirasida **VirtualNetUz** simulyatori ishlab chiqildi. Ishlab chiqish jarayonida dasturiy vositaning pedagogik, texnik va amaliy jihatlari tahlil qilindi hamda simulyator tarmoq texnologiyalariga oid mashg‘ulotlarning (amaliy, laboratoriya) o‘quv maqsadlariga, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish talablariga moslashtirildi.

Tadqiqot doirasida texnologik-instrumental komponent sifatida ishlab chiqilgan VirtualNetUz simulyator foydalanuvchilarga virtual tarmoq qurilmalari bilan ishlash, dasturda tarmoq qurilmalarini sozlash, turli tarmoq topologiyalarini yaratish va tahlil qilish, tarmoq jarayonlarini vizual kuzatish, xatoliklarni aniqlash va tuzatish, o‘quv topshiriqlarini baholash, qulay interfeys va interaktiv elementlar bilan ishlash, tarmoq loyihalarini saqlash hamda qayta ishlash imkonyatlarini taqdim etadi.

Mazkur imkoniyatlarga asosan, tarmoq texnologiyalariga oid mashg‘ulotlarda simulyatorlardan nazariya va virtual amaliyot uyg‘unligini ta’minlovchi texnologik-instrumental vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning natijasida talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, yechim topish va o‘z bilimini amaliyotda sinab ko‘rish ko‘nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

Shu bilan birga ushbu bobda tarmoq texnologiyalariga oid ma’ruza mashg‘ulotlarini virtual ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish metodikasi takomillashtirildi. Unda Active-learning metodlari (krossvord, aqliy hujum, konseptual jadval, juftini top) negizida tarmoq texnologiyalariga oid virtual jarayon va hodisalarni yoritishga qaratilgan videoma’ruzalar, virtual izohli lug‘at va taqdimot kabi vositalardan foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan.

Ushbu g‘oyaga asosan tarmoq texnologiyalariga oid ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi. Unda professor-o‘qituvchi faoliyati, virtual jarayonlar, mustahkamlash bosqichi, virtual stend, videoma’ruza va virtual izohli lug‘at o‘zaro bog‘langan metodik tizim sifatida belgilandi. Mazkur jarayonda xorijiy


saytlar hamda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan axborot-ta’lim muhitidan foydalanish, shuningdek, “Krossvord”, “Hikoya qilish”, “Konseptual jadval”, “Juftini top” kabi active-learning metodlarini qo‘llash orqali talabalarning ma’ruza materiallarini o‘zlashtirishi, bilish faolligi va tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv takomillashtirildi. Buning natijasida ya’ni, active-learning metodlaridan foydalanish talabalarni mashg‘ulotlarda faollashtirishga, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini bayon etish kabi fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mazkur bobda tarmoq texnologiyalariga oid amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni loyihaviy ta’lim texnologiyasi asosida vizual loyihalashtirishga mo‘ljallangan amaliy dasturlar, jumladan VirtualNetUz simulyatori hamda express testlar, sonli yozma ish (diktant), muammoli vaziyatlar yordamida olib borish metodikasi ishlab chiqildi.

Bunda o‘tilgan mavzuni takrorlash bosqichida express testlar, mavzuni mustahkamlashda sonli yozma ish (diktant) metodlaridan foydalanish, amaliy bosqichda VirtualNetUz simulyatorida tarmoqni loyihalashga oid topshiriqlar berish va tarmoqni sozlash jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan foydalanish nazarda tutilgan. Talabalar berilgan topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, o‘z loyihalarini tasvirlab, uning imkoniyatlari va afzalliklarini yoritib beradi. Shu o‘rinda topshiriqni bajarish jarayonida uchragan muammolarni va uni bartaraf etilishi yuzasidan qilingan ishlar bo‘yicha taqdimot qiladi. Shuningdek, professor-o‘qituvchi va tengdoshlari tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Buning natijasida talabalarda tarmoqni sozlash, boshqarish, kengaytirish, muammolarni bartaraf etish, ish faoliyatini optimallashtirish, yangilash, ko‘chirish, virtuallashtirish, monitoring va tahlil qilish, qoidalar va qonuniy talablarga moslashtirish, xavfsizlikni ta’minlash kabi vazifalarini bajarishga oid ko‘nikmalarni rivojlantirishga erishiladi.

Shuningdek, ushbu bobda talabalarning tarmoq texnologiyalari fanidan mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi takomillashtirildi. Chunki, mustaqil ta’lim nafaqat o‘tilgan mavzularni takrorlash, balki fanga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘rganish, talabalarning faolligi va mustaqilligini shaxs xususiyatlari sifatida shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini, ijodkorlik, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Shu bois, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamda o‘qituvchilarining tarmoq texnologiyalari mavzulariga oid mustaqil ta’limini tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

